

5-10-2019

EHE EKOLOGY AND SPREAD OF THE GENUS LYCIUM L. SPEACIES

Nodira Nurillayeva

Samarkand state university Doctorant; Doctor of science, professor

Khislal Khaydarov

Samarkand state university Doctorant; Doctor of science, professor

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Nurillayeva, Nodira and Khaydarov, Khislal (2019) "EHE EKOLOGY AND SPREAD OF THE GENUS LYCIUM L. SPEACIES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 94.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/94>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

EHE EKOLOGY AND SPREAD OF THE GENUS LYCIUM L. SPEACIES

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

JING`IL (LYCIUM L.) TURKUM TURLARINING TARQALISHI VA EKOLOGIYASI

Nurullayeva Nodira Sayfullayevna, Haydarov Xislat Qudratovich
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti; biologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: *Jing`il turkumi Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub bo`lib, ushbu turkum 100 ga yaqin turni o`z ichiga oladi. Jing`il turkumi turlari asosan quruq va kamyog`in areallarda keng tarqalgan. Bir qancha turlari sho`rlangan tuproqlarda ham o`sinh ga moslashgan. Markaziy Osiyoda 6 ta tur, O`zbekistonda mazkur turkumning 3 ta uchraydi.*

Kalit so`zlar: *Lycium L, dorivorlik, tarqalish areali, Markaziy Osiyo, cho`l, to`qay*

ЭКОЛОГИИ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВИДОВ РОДА ДЕРЕЗА (LYCIUM L.)

Нуруллаева Нодира Сайфуллаевна, Хайдаров Хислат Кудратович
Самаркандский государственный университет
Докторант; доктор биологических наук, профессор

Аннотация: *Дереза – род растений семейства паслёновые. Род включает около 100 видов, распространённых повсеместно, включая субтропическую зону. Часто селится в сухих местах, некоторые виды на полу засоленных почвах. 6 видов этого рода выращиваются в Центральной Азии, из них 3 видов в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Lycium L, лекарственные средства, ареал распространение, Центральной Азии, пустыня, тугай*

THE ECOLOGY AND SPREAD OF THE GENUS LYCIUM L. SPECIES

Nurullayeva Nodira Sayfullayevna, Khaydarov Xislat Qudratovich.
Samarkand state university
Doctorant; Doctor of science, professor


Abstract: *Lycium is a genus of flowering plants in the nightshade family, Solanaceae. There are 100 species of plants in this category. The genus Lycium widely grows in arid to semi-arid environments of the temperate zones. Six species grows in the Central Asia. Three species occurs in the Uzbekistan.*

Key words: *Lycium L, spice, areal spread, Central Asia, desert, brush wood*

Jing`il turkumi turlari tikanli, shoxlari qattiq, tuksiz buta o`simliklardir. Ketma ket o`rnashgan barglarining uzunligi 1-8 sm. Gullari yakka-yakka yoki to`pgul, gullarining umumiy diametri 6-25 mm. Toj barglari qizil, binafsharang, oq yoki yashil ranglarda bo`ladi. Ularning gullari nayli, voronkasimon, mevasi 2 uyali, ko`p urug`li, diametri 8-20 mm, rezavor meva. Mevalari och qizil, sariq yoki qora ranglarda bo`ladi. Jing`il turkumi botanika nomeklaturasiga XVIII asrning o`rtalarida Karl Linney tomonidan kiritilgan. Linney tomonidan turkumning 3 turi (*L.europaeum, L. barbarum, L. afrum*) haqida ma`lumot berilgan. Keyinchalik amerikalik botanik-florist Charles Leo Hitchcock tomonidan jing`il turkumining 43 turining sistematikasi, morfologiyasi va tarqalishi to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan [1].

Lycium L. turkumi turlarining aksariyati zaharli. Turkum vakillarida askorbin kislotasi, betain, vitamin A, vitamin B₁, B₂, nikotin kislotasi uchraydi. Bundan tashqari zeaksantin, fizalein, steroidlardan: solasodin, β - sitosterol, polisaxaridlar, p-kumarin kislotasi, aminokislotalar va oqsillar mavjud. Turkum turlarining ildizi, po'stlog'i, bargi, mevasi va yosh novdalaridan turli dori vositalari tayyorlanadi. Jing'il turkumi vakillari asosan, jigar va buyrak kasalliklarini davolashda, ko'rishni yaxshilovchi, qandli diabet, gipertoniya kabi xastaliklarni oldini olishda foydalaniladi. Ayrim turlari antioksidantlik xususiyati tufayli qarishni oldini oluvchi, yoshartiruvchi vosita sifatida ham keng qo'llaniladi. Dorivorlik xususiyatiga ko'ra *L. barbarum* ayniqsa, juda mashhur [2,3].

Lycium L. turkumi turlari asosan quruq va kamyog'in areallarda o'sadi. Bir qancha turlari sho'rlangan tuproqlarda ham o'sishga moslashgan. Ayniqsa, Janubiy va Shimoliy Amerika, Afrika va Yevrosiyoda keng tarqalgan. Janubiy Amerikada 32 tur, Shimoliy Amerikadada 24 tur, Afrikada 24 tur, 12 tur mazkur turkumga mansub turlar o'sadi. Avstraliyada endemik tur sifatida *lycium australe* uchraydi. Rossiyaning Yevropaga yaqin qismida ushbu turkumga oid 3 tur mavjud. Ularning keltirishicha *Lycium* L. turkumiga kiruvchi *L. barbarum* L., *L. depressum* Stocks., va *L. ruthenicum* Murr. R.F.Mayevskiy tomonidan Rossiyaning o'rta qismlariga (Belgorod, Voronej, Kursk, Volgograd hududlariga) birinchi bo'lib keltirilgan [2,4,5].



1-rasm. Markaziy Osiyoda mavjud *Lycium* L. turkum turlarining yer sharida tarqalishi

Markaziy Osiyoda ushbu turkumga kiruvchi 6 ta tur mavjud bo'lib (1-rasm), oq jing'il (*L. turkomanicum* Turez.), qora jing'il (*L. ruthenicum* Murr.), yovvoyi jing'il (*L. dasystemum* Pojark.), qayishqoq poyali jing'il (*L. flexicaule* Pojark.), oddiy jing'il (*L. barbarum* L.), qisilgan jing'il (*L. depressum* Stock.) kabi turlar uchraydi [1,4].

Jing`il turkumining O`zbekistonda 3 ta turi (*L. turkomanicum* Turez., *L. ruthenicum* Murr., *L. dasystemum* Pojark.) tabiiy holda uchraydi. Shulardan eng keng tarqalgani qora jing`il hisoblanadi [6]. Amudaryo va Sirdaryo qayirlarda hosil bo`lgan kichik to`qaylarda asosan *L.ruthenicum* va *L.turkomanicum* uchraydi.

1-jadval

Jing`il turkumi ba`zi turlarining yer sharida tarqalishi

No	Tur nomi	Xalqaro nomeklaturasi	Tarqalish areali
1	<i>Lycium afrum</i>	GRIN:22936	Janubiy Afrika
2	<i>Lycium andersonii</i>	GRIN:448201	Shimoliy Amerikaning janubiy g`arbiy qismlari
3	<i>Lycium arabicum</i>	GRIN:22937	Pokiston, Misr, Arab yarim orollari, Malaya, O`rta Osiyo, Janubiy Afrika
4	<i>Lycium berlandieri</i>	GRIN:312812	Shimoliy Amerikaning janubiy-sharqiy qismlari
5	<i>Lycium carolinianum</i>	GRIN:22940	Janubiy Amerika
6	<i>Lycium Bertero</i>	GRIN:22940	Chili, Argentina
7	<i>Lycium depressum</i>	GRIN:413408	Shimoliy Afrika, Osiyo, Janubiy Yevropa
8	<i>Lycium pallidum</i>	GRIN:22947	Shimoliy Amerikaning markaziy va janubiy qismlari
9	<i>Lycium oxycarpum</i>	GRIN: 413405	Janubiy Afrika
10	<i>Lycium horridum</i>	GRIN:22946	Janubiy Afrika

***Lycium turkomanicum* Turez.** Oq jing`il balandligi 1.5-2.5 m bo`lgan, tikanli yalang`och buta, shoxlari sertugun mustahkam, har tomonga yoyilgan, po`stlog`i yorilgan, bir-ikki yillik poyalari xivchinsimon, ko`pincha egilgan poyali, po`stlog`i oqish, poyasi ko`p sonli mustahkam o`rnashgan tikanchali va barg,gul rivojlanadigan kurtakli yoki bargsiz. Barglari yorqin ko`kish, biroz etdor, tomirlari biroz bilinadigan, cho`zinchoq teskari lansetsimon, o`tmas yoki kam hollarda o`tkirlashgan uchli, asos qismiga asta-sekinlik bilan qisqarib boruvchi tipda, uzun 2-5(6) sm, eni 0.2-1 sm, bandi yaprog`idan 2-6 marta kalta, qisqargan poyalarining yon barg qo`ltig`idan tashqaridagi kurtaklaridan rivojlangan gullarining 4-12 mm bo`lgan gulbandida 3-5 tadan barg to`plamlari bilan birgalikda joylashgan. Kosachabargi keng qo`ng`iroqsimon, notekis tishchali 5 (ba`zan 4-6) yoki 2-3 bo`lakka kesilgan. Tojbargi yorqin binafsha rangda rangda, uzunligi 9-13 mm bo`lgan yuqoriga naysimon shaklda kengayuvchi voronkasimon va nayga nisbatan 1.5-2 marta kalta va egilgan 5 (ba`zan 4-6) ta tuxumsimon yoki cho`zinchoq tuxumsimon bo`laklarga bo`lingan, chetlari kam sonli kalta tukchali.

Changchilarining chang iplarining uzunligi bo`yicha bir xil, nayning o`rtasidan yuqorirog`iga birikkan, yalang`och mevasi qizil, sharsimon yoki tuxumsimon 4-8 mm

uzunlikda. Urug'lari buyraksimon uzunligi 2-3 mm. May-avgust oylarida gullaydi, iyun-sentyabr oylarida mevalari pishadi. Umumiy tarqalishi Markaziy Osiyo, (Janubiy Qizilqum va Qoraqum, Janubiy Pomir Oloy) Eron va Afg'oniston.

***Lycium ruthenicum* Murr.** Qora jing'il bo'yi 70-150 sm bo'lgan tikanli yalang'och buta, mustahkam shoxlari kalta tikanli, po'sti kulrang bargsiz tikanlardan tashqari uzun bargli shoxlari kuchli yoyilgan. Bir yillik novdalarining po'stlog'ining rangi oqish. Barglari o'troq, ko'kish, etdor, tomirlari sezilarsiz, barglari ingichka chiziqsimon, deyarli silindrsimon, ingichka teskari lansetsimon, uzunligi 0.5-2.5 sm, eni 1-3 mm, uchi tumtoq asosiga asta-sekinlik bilan qisqarib borgan. Gullari uzunligi 5-8 mm bo'lgan gul bandida bittadan yoki to'p bo'lib ikki cheti tikanli barglari bilan birgalikda joylashadi. Kosachabargi 3-5 mm oqish pasti ingichka, pastdan yuqori qismidagi nayga voronkasimon kengayib boruvchi va ichki qismi binafsharang, bukilgan, uzunchoq tuxumsimon bo'laklarga bo'lingan naydan 2 marta kalta. Changchilari uzunligi har xil, chang iplari bilan nayning pastiga birikkan va birikish joyi qalin tukchali. Mevalari qora, diametri 5-8 mm. Urug'lari ko'p sonli, buyraksimon, ninasimon, uzunligi 2 mm. Aprel-iyulda gullaydi, iyun-avgustda mevasi pishadi. To'qayzor, sho'rlangan pastqamliklarda tarqalgan. O'zbekistonning Namangan, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari, Qoraqalpog'istonda uchraydi.

***Lycium dasystemum* Pojark.** Yovvoyi jing'il bo'yi 1.5 m gacha bo'lgan shoxli, tikanli buta. Shoxlarining qobig'iyorqin kulrangda va g'adir budir yoriqli yosh navlari oqish yoki yorqin sariq, yalang'och, tikanli yoki uchki novdalari tikansimon o'tkirlashgan, ularning ayrimlari qisqarib tikanga aylangan, oxirgilari bargsiz yoki barg va gullarga ega. Yosh novdalarida barglari yakka, qari shoxlarida 2-5 tadan bog' hosil qilib, ingichka tuxumsimon yoki ingichka ellipssimondan teskari tuxumsimon yoki tuxumsimon ellipssimon ko'rinishlarda bo'ladi. Uzunligi 10 mmdan 13 mmgacha, eni 1.5 smdan 3.5 smgacha bo'lib, uchlari o'tkirlashgan yoki to'mtoq, yorqin ko'kish, yo'g'on bilinib turadigan tomirli, bandi kalta. Yakka tipdagi gullari barg qo'ltig'idagi uzun novdalarning ustki qismida yoki 2-6 tadan to'p bo'lib barglar bilan qari shoxlardagi gulbandlarda (uzunligi 3-13 mm) joylashadi. Kosacha bargi qo'ng'iroqsimon, uzunligi 3-4 mm, 4-5 tishchali yoki 2-3 bo'lakka kesilgan, chetlari qisman tukchali, chetlari oq chiziqli. Toj bargi binafsha rangda, uzunligi 8-13 mm, egilish joyida birdan kengayadigan deyarli silindrik naychali, ichida changchilari birikadigan joyda yuqorirog'ida kalta tuklardan iborat halqa mavjud. Changchilari nay o'rtasiga yaqin joyda birikadi, gul tojlari uzun. Mevalari qizil, sharsimon yoki tuxumsimon-sharsimon. Urug'lari buyraksimon qo'ng'ir, mayda, uzunligi 1.5-2.0 mm. Aprel-avgustda gullaydi, iyun-sentabrda meva tugadi. Sho'rlangan yerlar, qumlar, to'qayzorlar, tog'oldi va tog'lardagi quruq yonbag'irlarda o'sadi. O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan [6].

***Lycium* L.** turkum turlari kserogalofit o'simliklar bo'lib, ayniqsa, Janubiy va Shimoliy Amerika, Afrika, Yevrosiyoda keng tarqalgan. O'zbekiston hududida asosan qumli cho'llarda va daryo bo'ylaridagi kichik to'qaylarda uchraydi.

Jing'il turkumi vakillarining ildizi bargi, yosh novdasi, po'stlog'i va mevasining tarkibida ko'plab foydali moddalar sabab, tibbiyotda turli xil xastaliklarni oldini olishda va davolashda foydalaniladi.

References

1. Hitchcock, Charles Leo. A Monographic study of the Genus *Lycium* of the Western hemisphere. Annals of the Missouri botanical garden. California.1932.184-187 b.
2. 'otterat, O. Goji (*Lycium barbarum* and *L. chinense*): phytochemistry, pharmacology and safety in the perspective of traditional uses and recent popularity. *Ianta Med.* **2010.** 76, 7-19 b.
3. Ruyu Yao, Michael Heinrichb, Caroline S. Weckerlea. The genus *Lycium* as food and medicine: A botanical, ethnobotanical and historical review. *Journal of Ethnopharmacology.* 212(2018) 55-56 b.
4. Korovin Ye.'. *Rastitel'nosti Sredniy Azii i Yujnogo Kazaxstana.* T. I. Tashkent. Akademii nauk uzbekiskoy SSR. 1961. 68s.
5. Rodionenko G.I. Sem. aslenovqe - Solanaceae ers. // *Derevg'ya i kustarniki SSSR.* T. VI. M., L.: Izd-vo AN SSSR. 1962. S. 87-110.
6. *Flora Uzbekistana.* T. V.Tashkent. Akademii nauk uzb. SSR. 1961.